

XALQARO TURIZM DISKURSIGA OID TERMINLAR TARJIMASI MUAMMOSI

*Buzrukova Maxina Muxamadxonovna,
Sharof Rashidov nomidagi SamDU, Dotsent, PhD*

<https://orcid.org/0000-0003-2525-3699>

THE PROBLEM OF TRANSLATION OF TERMS RELATED TO INTERNATIONAL TOURISM DISCOURSE

*Buzrukova Makhina Mukhamadkhanovna,
SamDU named after Sharof Rashidov, Associate Professor,
PhD*

e-mail:
buzrukovam@rambler.ru

ПРОБЛЕМА ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ, СВЯЗАННЫХ С МЕЖДУНАРОДНЫМ ТУРИСТИЧЕСКИМ ДИСКУРСОМ

*Бузрукова Махина Мухамадхановна,
СамДУ им. Шарофа Рашидова, доцент, к.б.н.*

Annotatsiya. Mazkur maqola xalqaro turizm diskursiga oid terminlarni tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi. Xalqaro turizm diskursi maxsus terminologik nominatsiyalarni o'z ichiga olgan noyob muloqot sohasidir. Tadqiqot turli madaniyatlar o'rtasidagi turizm terminlarining tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni, sinonimlik va ko'pma'nolilikni, tarjimaning lingvomadaniy xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan. Tarjima jarayonida terminlarni funksional ekvivalentlarni topish, kalkulashtirish, o'zlashtirish kabi usullar qo'llanilishi va bu jarayonning o'ziga xos qiyinchiliklari yoritiladi.

Kalit so'zlar: xalqaro turizm diskursi, termin tarjimasi, lingvomadaniyat, sinonimlik, ko'pma'nolilik, tarjima usullari.

Annotation. This article analyzes the challenges encountered in translating terms related to international tourism discourse. International tourism discourse is a unique communication field that includes specialized terminological nominations. The research focuses on studying the issues of translating tourism terms between different cultures, synonymy and polysemy, and the cultural and linguistic features of translation. The article highlights the difficulties in the translation process, such as finding functional equivalents, calquing, and borrowing terms.

Keywords: international tourism discourse, term translation, cultural-linguistic environment, synonymy, polysemy, translation methods.

Аннотация: Настоящая статья посвящена анализу проблем, возникающих при переводе терминов, относящихся к международному туристическому дискурсу. Международный туристический дискурс представляет собой уникальную сферу общения, включающую специальные терминологические номинации. Исследование направлено на изучение проблем перевода туристических терминов между различными культурами, а также синонимии и многозначности, культурно-языковых особенностей перевода. В статье освещаются трудности процесса перевода, такие как поиск функциональных эквивалентов, калькирование и заимствование терминов.

Ключевые слова: международный туристический дискурс, перевод терминов, культурно-языковая среда, синонимия, многозначность, методы перевода.

KIRISH. Xalqaro turizm diskursi maxsus terminologik nominatsiyalar faol qo'llaniladigan noyob muloqot sohasidir. Ushbu atamalar turistik obyektlar, xizmatlar, turizm turlari, shuningdek, madaniy va tabiiy diqqatga sazovor joylarning nomlarini o'z ichiga oladi. Bunday atamalarni tarjima qilish masalasi ushbu sohada tarjimonlar duch keladigan asosiy muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Tadqiqotimizda turli turistik matnlarda uchraydigan turizm atamalarining tillararo mutanosibligini o'rganishni maqsad qilganmiz. Turistik matnlar deganda, broshyura, varaqa, narx-navo ro'yxati yoki katalog kabi turistlarga yoki turizm sohasidagi mutaxassislariga mo'ljallangan barcha yozma matnlar tushuniladi. Ishimizda turistik matnlarni yaratishda qo'llaniladigan turizm tilini va ayniqsa, ushbu jarayonda ishlatiladigan turizm terminologiyasini tahlil qilishni maqsad qilib oldik.

Turizm diskursi, boshqa har qanday kasbiy soha kabi, o'ziga xos terminologiyaga ega. Mazkur terminologiyani qiyosiy jihatdan va tarjima nuqtai nazaridan o'rganishga bag'ishlangan ishlar juda kam. Ayniqsa, termin tarjimasining muammolarini tarjima nuqtai nazaridan ko'rib chiqishga bag'ishlangan ishlar ozchilikni tashkil qiladi.

M. Azizova aytib o'tganidek "Turizm terminlarining mavjud o'zbek tilidagi izohli, elektron va tarjima lug'atlarini yaratish o'zbek terminologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Izohli lug'atlarda va turizm terminlariga bag'ishlangan maxsus lug'atlarda terminlarni berish va tushuntirish talabani ushbu mavzuga oid eng zarur va umumiy tushunchalar bilan tanishishiga, bilim darajasini oshirishiga hamda ushbu sohaga qiziqish uyg'otishiga xizmat qiladi" [Azizova 2022: 775-777].

Terminologiyaning fundamental masalalari nufuzli rus, ingliz va o'zbek olimlari (Abdullayeva F. Problems and theoretical translation issues of tourism terms from English into Uzbek, 2023; Isakova E.M. The discourse of tourism and its components, 2016; Abduhamidova L. 2018; Sobirova Z., Mengliyev B.; Новожилова А., Королкова С. 2018; Leiper N.; Mancini M. 2005; Тогаев В. 2023; Денисова Г., Дроздь А., Романович Р. 2011; Fischer M. 2010; Иванова Н.,

Масленникова О. 2013; Pierini P. 2007; Muñoz I.D. 2012; Sanning H. 2010) tomonidan o'rganilgan.

M. Teresa Cabre turistik terminlarni tarjima qilishda "ixchamlik, aniqlik va moslik eng muhim mezonlar" ekanligini ko'rsatib o'tadi. U original matnning mazmunini ortiqcha murakkabliksiz yetkazish muhimligini, bu esa turistlar tomonidan ma'lumotni oson qabul qilinishini ta'minlashini qayd etadi. Cabre, shuningdek, yuqori sifatli va ishonchli tarjima yaratish uchun ekvivalentlarni tanlashda va maqsadli auditoriyani hisobga olishda ehtiyotkorlik zarurligini ta'kidlaydi [Cabre 2010: 361].

Tarjima faniga tegishli ishlar tahlili quyidagi mashhur tarjima usullarini ajratishga imkon beradi:

funksional ekvivalentni qidirish/foydalanish;

leksik taraqqiyot (umumlashtirish/konkretizatsiya);

kalkulashtirish;

tavsifli tarjima;

aralashtirish;

neologizm yaratish.

MUHOKAMA. Keling, o'zbek, rus va ingliz tillarida "turizm" sohasi terminologik nomlanishining ayrim sotsiomadaniy jihatlarini o'rganib chiqaylik va terminlarni tarjima qilish jarayonida qanday yondashuvni qo'llash mumkinligini aniqlaylik.

Avvaliga, tarjima jarayonida ekvivalentlarni topish eng oddiy va tushunarli yondashuvdek tuyulishi mumkin. Ammo, tarjima ekvivalentini aniqlashda bir qator qiyinchiliklar yuzaga keladi, jumladan:

- tillar juftligida terminning kommunikativ qamrovi farqli bo'lishi,

- terminning turli xil ma'nalarga ega bo'lishi,

- tarjimonning subyektiv qarori.

Kommunikativ sig'imi jihatidan "sayyohat" atamasi rus va ingliz tilida quyidagi nominatsiyalar bilan tavsiflanadi: "путешествие", "отпуск", "туризм", "турист" - "tourism", "touring", "hiking", "charter", "package holiday", "package tour", "backpacking", "walkabout", "journey", "trip", "travel", "vacation", "holiday". Shu bilan birga, har bir atamaning axborot-

kognitiv tabiati o'ziga xos farqlarga ega ekanligini unutmash lozim.

M.N. Volodininaning terminologik nomlanish tafakkur va tilning ichki va tashqi omillari o'zaro ta'sirida shakllanadi, degan fikriga tayangan holda [Володина 1998], aytish mumkinki, ushbu atamalar ingliz va rus madaniyatida turizmning turli qirralarini ifodalaydi va ularning o'zbek tilidagi terminologik nomlanish bilan to'liq mos kelmaslik ehtimoli mavjud. Masalan:

(ing) Journey: - "Bir joydan boshqa joyga sayohat qilish yoki safar qilish jarayoni. Bu so'z ko'pincha uzoq masofalarga yoki vaqt talab qiladigan safarlarni ifodalaydi. Journey faqat jismoniy harakatni emas, balki ruhiy yoki hissiy o'sishni ham anglatishi mumkin".

(rus) Путешествие: "Qaysidir hudud yoki suv hududi bo'ylab harakatlanish, ularni o'rganish, shuningdek, umumta'lim, bilish, sport va boshqa maqsadlarda amalga oshiriladigan sayohat" [Vikipedia].

(o'zb) Sayyohat: "Sayyohat deganda jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda muddat bilan cheklangan, uzog'i bilan 1 yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi" [Vikipedia].

Uchala madaniyatda ham «sayohat» bo'sh vaqtni o'tkazish, ta'til va shunga o'xshash maqsadlar bilan amalga oshiriladigan safarni anglatadi. Biroq, semantik jihatdan ham, kontekstual qo'llanishda ham sezilarli farqlar mavjud.

Ingliz tilida "Journey" asosan transport vositasida harakatlanishni anglatadi, rus tilidagi "путешествие" va o'zbek tilidagi "Sayyohat" esa piyoda harakatlanishni ham o'z ichiga oladi. Bu ma'no ingliz tilidagi "Trip" so'zining sinonimi bo'lib, inglizcha-ruscha va inglizcha-uzbekcha lug'atlarida "sayr" yoki "piyoda sayr" so'zlariga ekvivalentdir.

Ijtimoiy-madaniy ma'nolarni o'zaro mos kelmasligi, ayniqsa ingliz tilidan o'zbek va rus tiliga tarjimada aniq ko'rinadi, bu yerda turli kontekstlarda ma'nolardan biri urg'ulanadi:

Most of her journeys were undertaken either for routine and material reasons (work, study, shopping), or were deliberately constructed to explore the city [https://dictionary.cambridge.org].

Большинство её поездок совершалось либо по рутинным и материальным причинам (работа, учёба, покупки), либо было специально организовано для исследования города.

Uning safarlarining aksariyati oddiy va moddiy sabablar (ish, o'qish, xaridlar) uchun amalga oshirilgan yoki shaharni o'rganish maqsadida maxsus rejalashtirilgan edi [tarjima bizniki, M. Buzrukova].

The precise origins of longer-distance canoe journeys remain unclear, as the relevant sources are not specific [https://dictionary.cambridge.org].

Точные истоки дальних путешествий на каноэ остаются неясными, так как соответствующие источники не дают конкретной информации.

Uzoq masofalarga kanoeda sayohatlarning aniq kelib chiqishi noma'lum, chunki tegishli manbalar aniq emas [tarjima bizniki, M. Buzrukova].

Ushbu misollar "journey" atamasining ko'p ma'noliligini va uni tarjima tilida mavjud ekvivalentni tanlash orqali vaziyatga bog'liq holda tarjima qilish variantlarini namoyish etadi.

Qayta tarjima qilishda tarjimon kontekstga bog'liq bo'lgan terminlarni qo'llash xususiyatlarini hisobga olishi va shunga muvofiq to'g'ri (adekvat) ekvivalentni tanlashi lozim. Qiyoslang:

(ing) Tourist: is a person who travels to destinations outside his/her residence and working place, and stays for at least 24 hours, for the purpose of leisure or business. [Dilek 2018] - bu shaxs yashash va ish joyidan tashqaridagi manzillarga sayohat qiladigan va dam olish yoki ishbilarmonlik maqsadida kamida 24 soat qoladigan kishi..

(rus) Турист: har qanday maqsadda sayohat qiladigan shaxs, agar bu sayohat ish qidirish, daromad topish yoki yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lmasa va yashash joyidan tashqarida kamida 24 soat bo'lsa (24 soatdan kam bo'lsa – ekskursant). Shaxs agar u o'zining dam olish ehtiyojlari va turistik sohadagi talablarini qondirayotgan bo'lsa, turist hisoblanadi (Turizm va rekreatsion geografiya bo'yicha jahon geografik kongressining tavsialari) [Зорин, Квартальнов, 2003].

(o'zb) Turist: turizm bilan shug'ullanuvchi shaxs; turistik sayohat yoki yurish ishtirokchisi.

Terminning ta'riflari uchta tahlil qilingan lingvomadaniyatda semantik o'xshashliklarni ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, yuqoridagi jadvalda keltirgan "Tourist" terminining ekvivalentlari barchasi turistik diskursda rus va o'zbek tillarida ham "Turist" deb tarjima qilinadi. Misol uchun "Vacationist" so'zini rus tilida "Отдыхающий" yoki "Отпускник", o'zbek tilida "Ta'til qiluvchi" deb tarjima qilolmaymiz. Yoki bo'lmasam, "Stranger" termini rus tilida "иностранец", "чужестранец", "незнакомец", "посторонний" o'zbek tilida "begona" degan terminlarga mos kelishi bilan, biz ularni turistik diskursda "Turist" deb tarjima qilamiz.

The holidaymaker purchases sunglasses and lotion to protect her eyes and body from intense radiation [https://dictionary.cambridge.org] - Турист покупает солнечные очки и лосьон, чтобы защитить глаза и тело от интенсивного излучения - Turist kuchli nurlanishdan ko'zlarini va tanasini himoya qilish uchun ko'zoynak va loson sotib olayapti [Tarjima bizniki, M.Buz.].

NATIJALAR. Ingliz, rus va o'zbek lingvomadaniyatida tasvirlangan terminologik atamalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilida parallel atamalar keng leksik variativligi kuzatiladi, bu atamalar semantik sinonimlar yoki foydalanish konteksti tor/qamrovli bo'lgan terminlar bo'lishi mumkin. Rus va o'zbek tillarida «turizm/turist» semasiga ega so'zlarning qo'llanishi ancha kam, bu esa ingliz tilidan rus va o'zbek tillariga tarjimada aks etadi, natijada turli ingliz terminologik atamaları uchun bir keng qo'llaniladigan ekvivalent termin tanlanadi, masalan, "turist".

Turistik diskursda terminlarni tarjima qilishning keng tarqalgan usuli kalkalashtirishdir. Agar chet tilidagi terminning ichki shakli ravshan va tushunarli bo'lsa, kalkalashtirish qo'llaniladi:

Tour package – (турпакет) - turpaket, turist xizmatlarining to'liq majmuasini o'z ichiga olgan turpaket: *Explore Ireland, Northern Ireland, and Scotland with our sample tour packages* [https://www.bracktours.com] - *Исследуйте Ирландию, Северную Ирландию и Шотландию с нашими образцами турпакетов* - Bizning namunaviy *turpaketlarimiz* bilan Irlandiya, Shimoliy Irlandiya va Shotlandiyani kashf qiling [Tarjima bizniki, M.Buz.].

XULOSA. Xalqaro turizm diskursida terminlarni tarjima qilish jarayonida madaniy va kontekstual moslikni ta'minlash, funksional ekvivalentlar tanlash, shuningdek, milliy tilning o'ziga xos xususiyatlarini saqlash muhim ekanligi qayd etiladi. Tarjima jarayonida turizm sohasidagi yangi tushunchalar va terminlar uchun mos tarjima variantlarini izlash katta ahamiyatga ega bo'lib, bu termin tizimini rivojlantirish va boyitishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azizova M. Translation problems of tourism terminology from english into uzbek language // Science and innovation international scientific journal-2022, 1, 2181-3337. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7191428>
2. ЭТ Зорин И.В., Квартальнов В.А. Энциклопедия туризма: Справочник. - М.: Финансы и статистика, 2003. - 368 с.
3. Cabré, M.T. 2010. Terminology and Translation. In Y.Gambier, L.van Doorslaer (eds.) Handbook of Translation Studies. Amsterdam/Philadelphia: J.Benjamins Publishing Company. <https://www.bracktours.com> <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/tourism>

